

ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDAGI FARHOD OBRAZI GENEZESI

Umarova Madina

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Yaponshunoslik fakulteti yapon-ingliz filologiyasi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10573620>

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Farhod va Shirin" dostonidagi bosh qahramon, ya'ni Farhodning ham tashqi, ham ichki olami pok ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'z: Komil inson, ishq, shohlik nuri, ism, iymon yo'li.

ALISHER NAVOI GENESEE OF THE IMAGE OF FARHAD IN KHAMSA

Abstract. In this article, it is noted that the main character in the epic "Farhad and Shirin", that is, the world of Farhad, both external and Internal, is pure.

Keyword: perfect man, ishq, Kingdom light, Name, way of faith.

ГЕНЕЗИС ОБРАЗА ФАРХАДА В "ХАМСЕ" АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. В этой статье подчеркивается, что главный герой эпоса "Фархад и Ширин", то есть и внешний, и внутренний мир Фархада чист.

Ключевое слово: Совершенный Человек, любовь, свет царства, имя, путь веры.

Kirish

Dostondagi asosiy tushuncha-bu ishq. Tug'ilgandanoq Farhodning qalbiga otashdek ishq tashlangan. Shuning uchun ham chaqaloqning

Yuzinda ishq asrori yozilg'on,

Ichinda dard ta'vizi qozilg'on.

Farhodning ismi ham, Qur'oni karim: "Al-asmou tanzilu min as-samo", ya'ni" Ismlar osmondan tushadi ", deyilganidek, ishq osmonidan tushgan.

Farhodga ism qo'yish jarayoni dostonida quyidagicha izohlangn.

"Himmat"dan "h", "iqbol"dan "alif"(uni "i"deb ham,"o"deb ham,"a"deb ham ishlatish mumkin)," davlat"dan "d"ni olib, qo'shsak "hod" paydo bo'ladi, buni "far" ya'ni "shohlik nuri"ning keyiniga olsak, "Farhod" so'zi hosil bo'ladi.

Ismning ikkinchi izohi esa quyidagicha:

"Firoq"so'zidan "f", "rashk" so'zidan "r", "hajr" so'zidan "h", "oh" so'zidan "o", "dard" so'zidan "d" harflarini jamlab, "Farhod" deb ism qo'yishgan. Ismida Farhodning ma'naviy va jismoniy fazilatlari aks etgan.

Farhodning faqat o'zi va ko'ngli pok bo'lmasdan, tili va so'zi ham pok bo'lgan. Tangri taolo tug'ilishidan ruhiga payvasta etgan ishq unga favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi. Bir marta ko'rgan sahifasini qayta ochmas, chunki hammasi yodida qolar, o'qib o'tmoq, uqib o'tmoq, uning shiori edi. Nafaqat ilmni, balki boshqa hunarlarni ham shunday mahorat bilan egallardi.

Farhod insoniy o'zligini yo'qotmay, poklanish yo'lida davom etgan, nafsoniy istak, shaytoniy intilishlarga qarshi kurashgan komil inson obrazidir. Nafsni yengish quroli-bu ishq. Farhodning oshiqligi uni bu nafs lashkari bilan kurashga otlantiradi, ishq unga kuch, sabot va iroda ato etadi. Tasavvufda ishq deganda faqat mehr, sevgi emas, uni Allohga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar yig'indisi tushuniladi.

Xulosa

Shu ma'noda Farhod o'zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir. Farhod yo'li-ishq, iymon yo'li mashaqqatli, ammo oxiri xayrli va sharaflil bo'ladi.

Farhod obrazi hamon tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarni oliyjanob fazilatlar ruhida, insonparvarlik va vatanparvarlik, erksevarlik va ma'rifatparvarlik, mardlik va xalq ishiga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

REFERENCES

1. Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik. 8-tom. Toshkent, 1991.
2. Alisher Navoiy. Xamsa . Toshkent. 2013
3. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent. 1995.
4. Ochilov E. Komillikning ikki yo'li/Navoiyning ijod olami. Toshkent. 2001.